

Zamonaviy Yondashuv Asosida Ta'lim-Tarbiya Jarayonining Samaradorligini Oshirish

A. J. Kurbanov

Termiz davlat universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o'quvchilarga yetkazib berish.

Kalit so'zlar: Zamonaviy ta'lim, mehnat bozorida, metodlar, chizma geometriya, pedagogik mahoratni, sun'iy intellect.

Zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o'quvchilarga yetkazib berish asosida ma'lum faoliyat ko'nikma va malakalarni shakllantirish, faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan nazariy va amaliy bilimlar darajasini baholash o'qituvchidan yuksak pedagogik mahoratni, ta'lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi.

Bugungi kunda professional ta'limi muassasasining asosiy ijtimoiy vazifasi mehnat bozorida talab qilingan bitiruvchilarni ya'ni raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashdir. Ushbu vazifani amalga oshirish uchun professional ta'lim mazmuni ishlab chiqarishdagi mutaxassis faoliyatini, sun'iy intellekt vositalari asosida uning bilim, ko'nikma va malakalarini o'zida to'liq mujassamlashtiradigan raqamli texnologiyalardan foydalanish lozim[3].

Ta'lim tizimli bilim olishning eng muhim va ishonchli usulidir. Ta'limga ikki tomonlama aloqa (ta'lim olish va ta'lim berish), shaxsni har tomonlama rivojlantirish va boshqa xususiyatlar xosdir. Ta'lim, shuningdek, o'ziga xos xususiyatlar ham ega. Ta'lim o'qituvchi tomonidan boshqariluvchi o'ziga xos anglash jarayonidir. Ta'lim o'qituvchining o'quvchilar bilan muloqoti jarayoni ham sanaladi. Har qanday ta'lim o'zida o'qituvchi va o'quvchining faoliyati, ya'ni, o'qituvchining o'rgatish hamda o'quvchining o'rganishga yo'naltirilgan faoliyati, boshqacha aytganda to'g'ridan to'g'ri, bevosita va nisbiy munosabat aks etadi.

Zamonaviy pedagogikada "kreativ pedagogika" tushunchasi qo'llanila boshlaganiga hali u qadar ko'p vaqt bo'lmadi. Biroq, o'qitish jarayoniga innovatsion hamda ijodkorlik yondashuvlarini qaror toptirishga bo'lgan ehtiyoj "Kreativ pedagogika"ning pedagogik turkum fanlar orasida mustaqil predmet sifatida shakllanishini ta'minladi. Ushbu predmet asoslarini pedagogika tarixi, umumiy va kasbiy pedagogika hamda psixologiya, xususiy fanlarni o'qitish metodikasi, ta'lim texnologiyasi va kasbiy etika kabi fanlarning metodologik g'oyalari tashkil etadi. "Kreativ pedagogika" fanining umumiy asoslari mutaxassis, shu jumladan, bo'lajak mutaxassislarning kasbiy kamol topishlari uchun zarur shart-sharoitni yaratishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarda o'quvchilarning o'quv va ijodiy faolliklarini oshiruvchi, ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi pedagogik texnologiyalarni qo'llashga doir katta tajriba to'plangan bo'lib, bu tajriba asosini interfaol metodlar tashkil etmoqda.

Bu turdagi metodlar o'z mohiyatiga ko'ra ta'lim oluvchilarda o'quv-bilish faolligini oshirish, ularni kichik guruh va jamoada ishlash, o'rganilayotgan mavzu, muammolar bo'yicha shaxsiy qarashlarini

dadil, erkin ifodalash, o'z fikrlarini himoya qilish, dalillar bilan asoslash, tengdoshlarini tinglay olish, g'oyalarni yanada boyitish, bildirilgan mavjud mulohazalar orasidan eng maqbul yechimni tanlab olishga rag'batlantirish imkoniyatiga egaligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Ta'lim va tarbiya jarayonida o'qituvchi (pedagog)lar tomonidan interfaol metodlarning o'rinli, maqsadli, samarali qo'llanilishi talabalarda muloqotga kirishuvchanlik, jamoaviy faoliyat yuritish, mantiqiy fikrlash, mavjud g'oyalarni sintezlash, tahlil qilish, turli qarashlar orasidagi mantiqiy bog'liqlikni topa olish qobiliyatlarini tarbiyalash uchun keng imkoniyat yaratadi.

Hozirda sun'iy intellekt imkoniyatlaridan foydalangan holda, o'zbek tilida o'tkazilgan yig'ilishlarni stenogramma qilish, yer yuzasi tasvirlarini qayta ishlash, qayta tiklanuvchi energiya manbalari asosidagi energotizim ma'lumotlarini tadqiq qilish singari loyihalar ustida ish olib borilmoqda[4].

Darslarning tarkibiy qismlari ishlab chiqilib, amaliy mashg'ulotlar uchun talabalar bajaradigan individual grafik topshiriqlarga namunalar, hamda o'rganilgan mavzu materiallarini mustahkamlash uchun mashqlar kreativ yondashuv asosida ishlab chiqiladi.

Chizma geometriya va kompyuter grafikasidan mashqlar har bir yangi mavzu materiallari bayon qilinganidan keyin guruhlarda o'qituvchi nazoratida bajarilib, talabalarining bilimlarini baholab borishda ancha qulayliklar yaratadi.

Taklif qilingan mashqlarning bevosita amaliyot bilan bog'lanishi, talabalar uchun yangi tushunchalarni qiziqarli shakllarda o'zlashtirish imkoniyatlarining mavjudligi chizma geometriya va muhandislik grafikasi fani bo'yicha darslar samaradorligining sezilarli ortishini ta'minlaydi. Shu bilan bir qatorda talabalar mustaqil bajaradigan grafik ishlarining mazmuni ham qayta ko'rib chiqilib, takomillashtirildi. Jumladan, talabalar uchun bir tipdagi variantlar taklif qilinib, bu topshiriqlar orqali o'quvchilar yangi tushunchalarni o'zlashtiradilar, ularda chizma bajarish ko'nikmalari shakllanib, grafik madaniyatlarini rivojlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdusalomovich, A. O. (2024). Dasturlashtirilgan ta'lim vositalaridan foydalanib texnologiya darslarida talabalarining didaktik ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi. TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 4(2), 317-319.
2. Sherali o'g'li, A. J. (2024). The Essence of Interactive Methods In The Development Of Students' Knowledge Of Technical Safety In The Credit-Module System. Progress Annals: Journal of Progressive Research, 2(2), 30-36.
3. Xuramov.I.P "Professional ta'limda ijtimoiy hamkorlik doirasida ta'lim jarayonini tashkil etish usullari"//Analytical Journal of Education and Development// 2023. 3- son 173-176 betlar
4. Panjiyevich, XI (2024). Sun'iy intellektning o'zbekistonda rivojlanishi va professional ta'limda qo'llanilishi. TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI , 4 (2), 257-259
5. Xuramov, I. P. (2022, September). TA'LIM MUASASSALARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH VOSITALARI. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE" INNOVATIVE TRENDS IN SCIENCE, PRACTICE AND EDUCATION" (Vol. 1, No. 2, pp. 217-219).
6. Kadyrov B. E. THE CONTENT OF THE DEVELOPMENT OF STUDENTS'CREATIVE SKILLS REGARDING NATIONAL CRAFT IN TECHNOLOGY LESSONS //Science and Education in Karakalpakstan ISSN 2181-9203. – C. 123.